

**NAMANGAN MADANIY MEROSIDA XO‘JA AMIN MAQBARASINING AHAMIYATI**

**Soxibova Aziza Umidjon qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “San’at asarlari va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’irlash” yo‘nalishi 1- bosqich magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Namangan viloyatida joylashgan Xo‘ja Amin maqbarasining tarixiy kelib chiqishi, me’moriy tuzilishi va bugungi kunda O‘zbekiston madaniy merosidagi o‘rni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Qadimiy tasavvuf maktablarining rivojida muhim o‘rin tutgan ushbu maqbara Namangangacha bo‘lgan tarixiy urbanizatsiya jarayonlarini tasvirlaydi va hududning diniy-ma’rifiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot tarixiy manbalar, mahalliy arxeologik ma’lumotlar hamda me’moriy tahlillar asosida olib borildi.*

***Kalit so‘zlar:** Xo‘ja Amin, Namangan, tasavvuf, madaniy meros, tarixiy yodgorlik, me’moriy obida, gumbazli imorat, Markaziy Osiyo me’morchiligi.*

**ЗНАЧЕНИЕ МАВЗОЛЕЯ ХОДЖА АМИНА В КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ НАМАНГАНА**

**Сохибова Азиза Умиджон кизи**

Магистрант 1-го курса Национального института художеств и дизайна имени Камолитдина Бехзода по направлению «Реставрация произведений искусства и архитектурного декора».

**Аннотация.** В данной статье на основе научного подхода анализируются историческое происхождение, архитектурная структура и роль мавзолея Ходжа Амина, расположенного в Наманганской области, в современном культурном наследии Узбекистана. Данный мавзолей, занимавший важное место в развитии древних суфийских школ, отражает процессы исторической урбанизации Намангана и имеет большое значение в религиозно-просветительской жизни региона. Исследование проводилось на основе исторических источников, местных археологических данных и архитектурного анализа.

**Ключевые слова:** Ходжа Амин, Наманган, суфизм, культурное наследие, исторический памятник, архитектурное сооружение, купольное здание, архитектура Центральной Азии.

**THE SIGNIFICANCE OF THE KHOJA AMIN MAUSOLEUM IN THE CULTURAL HERITAGE OF NAMANGAN**

**Sokhibova Aziza Umidjon qizi**

1st-year Master’s student at the Kamoliddin Behzod National Institute of Fine Arts and Design, specializing in "Restoration of Artworks and Architectural Decor."

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the historical origins, architectural structure, and the contemporary role of the Khoja Amin Mausoleum, located in the Namangan region, within the cultural heritage of Uzbekistan. As a pivotal site in the development of ancient Sufi schools, the mausoleum reflects the historical urbanization processes of Namangan and holds profound significance in the religious and educational life of the region. The research was conducted using historical sources, local archaeological data, and comprehensive architectural analysis.

**Keywords:** Khoja Amin, Namangan, Sufism, cultural heritage, historical monument, architectural landmark, domed structure, Central Asian architecture.

O‘zbekiston – ming yillik tarix qatlamlari bir-biriga tutashgan, har bir hududida qadimiy sivilizatsiyalar izlari saqlanib qolgan noyob makondir. Bu zaminning har bir g‘ishti, har bir qadimiy peshtog‘i o‘ziga xos ma’naviy xotirani, ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyatini va badiiy tafakkurini mujassam etadi. Bugun tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash nafaqat milliy qadriyatga hurmat, balki o‘zligimizni anglash, kelajak avlodning ma’rifiy boyligini mustahkamlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniy merosni o‘rganish, saqlash va tiklash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi: yodgorliklarni restavratsiya qilish, ularni xalqaro miqyosda targ‘ib etish hamda zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu bois, O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklariga berilayotgan e‘tibor — bu o‘tmish merosini asrash va kelajak uchun mustahkam ma’naviy poydevor yaratish borasidagi ulkan sa’y-harakatlarning yorqin ko‘rinishidir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan farmon va qarorlar xalqimizning qadimiy, betakror madaniyatini yanada rivojlantirishga, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini keng targ‘ib etishga yangi sur‘at baxsh etmoqda. Bu hujjatlar orqali milliy-madaniy merosimizga, xususan, hunarmandchilik an‘analarining yanada yuksalishiga alohida e‘tibor qaratilayotgani, amaliy san‘at ustalarining mehnati har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda.<sup>1</sup>

Ayniqsa, Namangan viloyatida joylashgan me‘moriy yodgorliklar — o‘tmish bilan bugun o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘lib, o‘zining noyob me‘moriy yechimlari, davr madaniyatini aks ettiruvchi bezaklari va oqilona qurilish an‘analari bilan diqqatni o‘ziga tortadi. Bu obidalar nafaqat tarixiy xotira, balki xalqning ruhiy poydevori, madaniy o‘zligining yorqin timsolidir.ing hududi ilk davrlardan boshlab turli etnik guruhlar yashagan maydon bo‘lgan Tarixiy manbalarda Namangan nomi “Non tayyorlanadigan joy” ma’nosidagi “Nan-makan” shaklida uchraydi. Bu nom hududning iqtisodiy hayoti va aholining mashg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Viloyat mamlakatimizning sharqiy hududida joylashgan bo‘lib, qadimdan turli madaniy qatlamlar, diniy-ma’rifiy maktablar va hunarmandchilik an‘analari shakllangan hudud sifatida alohida o‘rin tutadi. Viloyatning tarixiy markazlari — qadimiy qishloq-makonlar, yirik savdo yo‘llari bo‘yida rivojlangan shaharlar, diniy-ma’rifiy majmualar va me‘moriy obidalar — o‘zida bir necha ming yillik tarixni mujassam etgan. Bu hududda qadimiy Farg‘ona vohasi sivilizatsiyasining izlari, IX–XII asrlardagi islomiy ilm-ma’rifat markazlari, Temuriylar davri hunarmandchilik an‘analari hamda keyingi asrlarda shakllangan me‘moriy maktablarning o‘ziga xos uslublari uchrashadi.

Namangan viloyati tarixiy markazlari asosan shaharsozlik an‘analari yaxshi saqlangan eski mahallalar, qadimiy masjidlar, ziyoratgoh maqbaralari, xonaqohlar, bog‘-rog‘lar va xalq amaliy san‘ati rivoj topgan hududlar bilan mashhur. Bu joylar faqat mahalliy aholi uchun emas, balki butun Farg‘ona vodiysi tarixining ajralmas qismi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Hududdagi tarixiy

---

<sup>1</sup> Ш.М.Мирзиёев., Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

markazlar orqali o'tmishdagi ijtimoiy hayot, ma'naviy qadriyatlar, me'moriy did va hunarmandchilik darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Bugungi kunda Namangan viloyatida tarixiy merosni asrab-avaylash, yodgorliklarni restavratsiya qilish va ularni ilmiy asosda o'rganish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun ham viloyatning tarixiy markazlari nafaqat o'tmish xotirasi, balki zamonaviy turizm, madaniyat va ta'lim sohalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Namangan vohasidagi qadimiy yodgorliklar orasida Xo'ja Amin maqbarasi alohida o'rin tutadi. U nafaqat diniy markaz, balki o'z davrining me'moriy namunalaridan biri sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega.

Namangan shahrining Ko'zagarlik ko'chasida joylashgan Xo'ja Amin maqbarasi viloyatning qadimiy ziyorat joylaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu me'moriy majmua XVII asrning ikkinchi yarmida barpo etilgan bo'lib, Namanganning tarixiy qiyofasini belgilovchi muhim yodgorliklardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tarixiy yozma manbalarda qayd etilishicha, XVI asr oxirlarida mashhur fiqh ulamosi Shayh Xovandi Tohur avlodidan bo'lgan Iminxo'ja Eshon Toshkentdan Namanganga ko'chib keladi. U fiqh ilmida chuqur bilimga ega bo'lgan, xalq orasida "valiyulloh" sifatida katta e'tiborga ega alloma sifatida tanilgan.

Iminxo'ja Eshon umrining ko'p qismini Namangan ahliga ilm tarqatishga, yoshlarni ma'rifat yo'liga boshlashga bag'ishlagan. Uning shogirdlaridan Mirho'ja Eshon o'z davrining yetuk ilm egalariidan biri sifatida tanilgan bo'lib, ustoziga munosib shogird sifatida ko'rilgan. Keyinchalik Mirho'ja Eshon Iminxo'ja Eshonning nabirasi Yoqubxo'janing qiziga uylanadi. Yoqubxo'janing erkak farzandi bo'lmagani sababli oilaviy meros qizi va kuyoviga o'tadi. Aynan shu mablag'lar hisobiga Mirho'ja Eshon qayinotasi Ibrohimxo'jaga bag'ishlab maqbara qurdiradi.

Maqbaraning qurilish sanasi taxminan XVII asr oxiri — XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Yillar davomida ushbu qadamjo xalq orasida "Xo'ja Amin qabri" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Majmua uch asosiy qismdan iborat: maqbara, madrasa va masjid. Shulardan maqbara eng qadimiy va markaziy inshoot hisoblanadi. Kirish qismidagi peshtoqda "Amali usta Muhammad Ibrohim ibn Abdurahim" degan yozuv bitilgan bo'lib, bu obidani aynan qaysi usta bunyod etgani haqida aniq ma'lumot beradi.

Keyinchalik majmua atrofida Azizho'ja Eshon madrasasi va masjidi ham qurilgan. Sovet davri yillarida esa mazkur yodgorlikning asl maqomi va ruhiy qadriyati e'tibordan chetda qolib, turli maqsadlarda foydalanilgan. 1990-yilgacha turar joy sifatida foydalanilgan ushbu joylar deyarli qarovsiz holga kelgan. 1990-yildan boshlab masjid ta'mirlanib, jome sifatida faoliyatini qayta boshladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda esa majmua to'liq restavratsiya qilinib, bugungi kunda Namangan aholisi va tashrif buyuruvchilar tomonidan e'zozlanadigan muqaddas ziyoratgoh sifatida qayta tiklangan.<sup>2</sup>

Maqbara bugungi kunda nafaqat ziyoratgoh, balki madaniy meros obyektini sifatida davlat muhofazasiga olingan. Shu bois ushbu obidaning tarixiy qiymatini ilmiy asosda o'rganish, uni zamonaviy madaniy meros tizimidagi o'rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Maqbara faqat dafn

<sup>2</sup> Turg'unov Sherzod Abduvositovich O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 11-SON 20.09.2022

joyi emas, balki ilmiy suhbatlar, dars o'qitish va ma'rifiy faoliyat olib borilgan maskan bo'lgan.

Maqbara tashqi tomondan g'ishtdan tiklangan mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lib, binoning asosiy qismi markaziy gumbaz ostida joylashgan. Ichki qismidagi bezaklar me'moriy jihatdan oddiy, ammo tarixiy qiymatga ega bo'lgan naqshlar bilan ishlangan. Maqbara atrofida 5–6 metr chuqurlikda tadqiqotlar olib borilganda, bino tagida qadimgi qatlamlar, ya'ni XI–XIII asrlarga mansub arxitektura izlari aniqlandi. Bu esa yodgorlik qurilishining bir necha bosqichlarda shakllanganini ko'rsatadi.<sup>3</sup>

Maqbara yonida Xo'ja Amin qabriga bag'ishlangan masjid ham mavjud bo'lib, u XVIII asr o'rtalarida qayta ta'mirlangan. Qurilishdagi ba'zi detallardan kelib chiqib, hozirgi holat XVIII asr oxiridagi rekonstruksiya bosqichiga mansubligi ehtimoldan holi emas.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara ichida joylashgan sag'analar, me'moriy shakllar hamda yozuvlarda o'sha davrning diniy-ma'rifiy hayoti aks etgani qayd etildi. Maqbara devorlarida va gumbaz ostida uchraydigan bezaklar, qo'lda ishlangan g'isht naqshlari, tarixiy yozuvlar o'sha davr hunarmandchiligini yuksak darajada bo'lganini isbotlaydi.

Maqbaraning bir qismi hozirgi kunda restauratsiya qilingan bo'lsa-da, ayrim qismlari, xususan, ustki bezaklar hali ham o'zining dastlabki ko'rinishini saqlab qolgan. Binoning sharqiy devori yonida yana bir qadimiy inshoot – eski sag'ana qoldiqlari mavjud bo'lib, ularning shakli, joylashuvi va bezaklariga ko'ra XI–XII asrlarga taalluqli ekani taxmin qilinadi.

Arxeologik qazishma vaqtida topilgan sopol buyumlar XVII–XVIII asrlarga mansub ekanligi aniqlangan.

Maqbara diniy-madaniy jarayonlarning davomchisi sifatida maydonga chiqqan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, XVIII–XIX asrlarda maqbara atrofi Namangan shahrining ma'naviy markazlaridan biri bo'lgan. Ziyoratchilar oqimi mahalliy bozorlar, hunarmandchilik va iqtisodiy hayotning rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Xo'ja Amin maqbarasi O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ro'yxatiga kiritilgan va restavratsiya ishlari 1995–1997 yillarda o'tkazilgan. Namangan shahar turizm yo'nalishining muhim qismi sifatida targ'ib qilinmoqda va yiliga minglab chet ellik va mahalliy sayoxatchilarga xizmat qilmoqda.<sup>4</sup>

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xo'ja Amin maqbarasi O'rta Osiyo tarixiy merosining yuksak namunasi sifatida alohida e'tibor va chuqur ilmiy yondashuvga loyiq obidadir. Maqbaraning tarixiy qatlamlari, me'moriy shakllari va diniy ahamiyati uning nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham ma'naviy va madaniy ahamiyatini saqlab kelayotganini ko'rsatadi. Ushbu yodgorlikni o'rganish orqali biz ajdodlarimizning dunyoqarashi, san'at darajasi, ruhiy merosi va madaniy boyliklarini yanada chuqur anglaymiz. Ushbu yodgorlikning tarixiy shakllanishi, me'moriy tuzilishi va arxeologik qatlamlari nafaqat mahalliy madaniyat taraqqiyotini, balki mintaqadagi diniy-ma'rifiy qarashlarning rivojini ham o'zida aks ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maqbara bir necha

<sup>3</sup>« Некоторые памятники Ферганы» (Некрополи Намангана) ТашПи, 212 nashr

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi arxiv ma'lumotlari, 1995–2020.

davri o'z ichiga olgan murakkab me'moriy tizimga ega bo'lib, uning ostida XI–XIII asrlarga mansub qadimiy inshootlar mavjud. Bu esa majmuaning qatlamli tarixga egaligini va yillar davomida bir necha bor rekonstruksiya qilinganini tasdiqlaydi. Maqbaraning arxitekturasi, ayniqsa gumbaz konstruksiyasi, devor bezaklari, qo'lda ishlangan g'isht naqshlari va ichki makon tashkiloti o'sha davr hunarmandchiligida yuksak san'at darajasiga erishilganini ko'rsatadi. Yodgorlikda uchraydigan yozuvlar, diniy mazmundagi naqshlar, geometrik shakllar va g'isht terish uslubi mazkur inshootning faqat dafn marosimlari uchun emas, balki diniy-ma'rifiy an'analar markazi sifatida xizmat qilganidan dalolat beradi. Bu jihatlar yodgorlikning madaniy va ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, Xo'ja Amin Kabir maqbarasining atrofida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan kengaytirilgan sag'analar, qadimgi poydevor qoldiqlari va boshqa me'moriy unsurlar majmua tuzilmasining yanada chuqur o'rganilishini talab qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maqbara hozirgi ko'rinishini XVIII asr oxirida olgan bo'lsa-da, uning asosiy tarixiy ildizlari ancha chuqur — islom me'morchiligi rivojining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi.

Bugungi kunda madaniy meros obyektlarini asrash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Xo'ja Amin Kabir maqbarasi kabi yodgorliklarning o'rganilishi, ularga ilmiy e'tiborning kuchaytirilishi O'zbekistonning tarixiy-madaniy boyligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat ilmiy jamoatchilik uchun, balki keng omma, yoshlar tarbiyasi va turizm rivoji uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yodgorlikni restavratsiya qilishda ilmiy asoslarning qo'llanilishi, uning asl qiyofigini saqlab qolish va tarixiy qatlamlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish eng ustuvor vazifalardan biridir. Shuning uchun maqbara kelajakda ham tadqiqotchi olimlar, restavratorlar va tarix ixlosmandlari uchun muhim ilmiy manba bo'lib qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ш.М.Мирзиёев., Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017
2. Sherzod Abduvositovich O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 11-SON 20.09.2022
3. .М. Azimov — “Nekotorye pamiatniki Fergany (nekropol Namangana)”, Toshkent, 1962.
4. . Пугаченкова Г.А. “Архитектура Средней Азии”. – Москва: Искусство, 1963.
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi arxiv ma'lumotlari, 1995–2020